

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ASARLARIDA TA’LIM-TARBIYA MUAMMOSINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATDAN TADQIQ ETILISHI**  
**Tursunboyev Sherdorbek Akbarali o’g’li**

**Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sharq mutafakkirlarining asarlari va ularda ta’lim-tarbiya muammosining pedagogik-psixologik jihatdan tadqiq etilishi, ustoz shaxsiga qo’yilgan talablar haqida so’z boradi.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bolib dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”. [5.12.] Bu holat ayniqsa, ta’limiy va tarbiyaviy qarashlarda o’z ifodasini topgan.

Darhaqiqat, o’qituvchi to’g’risida ijtimoiy-tarixiy ta’limotlarni o’rganar ekanmiz, sharqning buyuk allomalari va ma’rifatparvarlari hisoblangan Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Zarnudjiy, A.Yassaviy, U.Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg’ariy, Mirzo Ulug’bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, S.Ayniy, A.Avloniy va boshqalarning asarlarida xalqimizning turmush tarzi, madaniyati, ilg’or ta’limiy va tarbiyaviy qarashlari, o’quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda o’qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, uning burchi, vazifalari va odobi, muallimning kasbiy tayyorgarligiga qo’yiladigan talablar, ustoz bilan shogird munosabatlari, o’qitish sharoitlari va boshqalar haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan.

O’qituvchining jamiyatda tutgan o’rni, uning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, burchi hamda vazifalariga xos ilg’or ta’limiy va tarbiyaviy qarashlar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari Abduxoliq G’ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro asarlarida ham keng yoritilgandir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosida bayon qilingan o’qituvchi shaxsi va faoliyatiga doir qarashlar, yoshlarni bilim egallash va ezgulikka chorlash, ustoz-shogird hamkorligi va munosabatlariga xos tartib-qoidalar, muomala madaniyati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan o’zbek xalqining og’zaki ijodida (o’zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviylik asosida tarkib topgan milliy-madaniy meros ekanligini ko’ramiz. Chunonchi, o’zbek xalqining og’zaki ijodi va eposlarida ustoz namunasi va o’giti sifatida bilimlarni egallash va ezgulikka intilish, mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sadoqat, do’stlik, adolatlilik, mehr-muruvvat, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, hamfikrlilik, hamkorlik, oqillik, e’tiqod, hurmat-ehtirom, halol va pok yashash ulug’langan. Bu voqelikni Alpomish, Kuntug’mish, Farhod va SHirin, Saddi Iskandariy, Yusuf va Zulayho kabi qator o’zbek xalq dostonlaridagi qahramonlar misolida ko’rish mumkin.

Xalqimiz o’tmishining muqaddas kitobi “Avesto” hozirgi o’zbek millati, uning etnik ongi va o’ziga xosligining asoslarini shakllantirgan davr (VII asrgacha) uchun insonlar turmush tarzi qoidalari va qonunlarining to’plami hisoblangan. Mazkur davr o’zbeklarning milliy xarakterini shakllantirgan. Biz “Avesto”ni o’zbek xalqining hozir ham namoyon bo’layotgan madaniyati va ijtimoiy-madaniy muhitini tasvirlash sohasidagi bebaho manba ekanini tan olamiz. “Avesto” bitta avlod kishilarining asari emas, balki u o’z mohiyatiga ko’ra, hozirgi Markaziy Osiyo va Sharq davlatlari hududlarida yashagan xalqlar donishmandligining xazinasidir. “Avesto”ning ta’limiy va tarbiyaviy qimmatini shundaki, u ko’p asrlar davomida xalq orasidan chiqqan ustoz-ziyolilar uchun asosiy qo’llanma sifatida yoshlarga ilmu ma’rifatni o’rgatish, axloq-odob fazilatlarini shakllantirishda muhim vazifani bajargan. “Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki-deyiladi “Avesto”da,- u, avvalo,

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

yaxshi o’qishi va so’ngra yozishni o’rganib, eng yuksak pog‘onaga ko’tarilsin”.

“Avesto”da o’qituvchining asosiy faoliyati quyidagilarni o’z ichiga olgan: 1) diniy va axloqiy tarbiya; 2) jismoniy va mehnat tarbiyasi; 3) o’qish va yozishga o’rgatish.

Bu davrda o’qituvchining bilimdonligi, shaxsiy fazilatlarini, ta’limiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mahorati va odobiga alohida e’tibor berilgan, o’quv-tarbiya jarayonida hayotiy misollar, ko’rsatmali qurollar, amaliy ijro, hikoya qilish va suhbat usullaridan keng foydalanilgan. Darsda o’quvchilardan o’tilgan mashg’ulotni ovoz chiqarmay takrorlash, individual va ijodiy ishlash talab qilingan. Farzandlarda ilk bolalikdan mehnatsevarlik va kasb-hunar ko’nikmasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan hamda maishiy mehnat turlariga o’rgatilgan.

Imom Buxoriyning “Al-jome as-sahih” asarining “Ilm kitobi” bo’limida ilm egallash fazilati va xosiyatlari, ilm o’rganish va o’rgatish odobi to’g’risida fikr yuritiladi. Bunda ilm egallash odobining 54 qoidasi haqida hikoyat qilingan. Ularda Muhammad payg’ambarning ilm o’rgatish va o’rganishga doir pand-nasihatlarini o’z ifodasini topgan.[30]

Islom mamlakatlari maktab va madrasalarining muallim va mudarrisilari hamda tolibi ilmlari bu pand-nasihatlariga qat’iy amal qilganlar. Mazkur mezon asosida ilm o’rgatuvchi va o’rganuvchilar quyidagi didaktik me’yorlarga rioya qilganlar: ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitilari, me’yorida bo’lishi; ilm mazmunini “aytgan edilar, xabar beradilar, guvohlik beradilar” kabi samimiy, yoqimli so’zlar bilan ifodalash; biror ta’limiy yoki tarbiyaviy masalani o’rtaga tashlab, muhokama, munozara yo’li bilan o’rgatish; ilm o’rganish va o’rgatish uchun ma’lum kunlarni qat’iy belgilab qo’yish; ilmni fahmlab, teran tushunib, anglab o’rganish, esda mustahkam saqlash; teran tushunilgan, yaxshi anglab olingan ilmlarni yod olish; ilm o’rgatish jarayonida bolaga lozim hollarda tanbeh berish mumkinligi; kishi ilmni o’zi o’rganib, o’zgalarga ham o’rgatishi, ilmga o’zi amal qilishi zarurligi; ilmning susaymog’i, ilmga e’tiborsizlik jamiyatni muqarrar inqirozga etaklashini tushunish; ilmni oson, engil qilib, odamlarni bezdirmay o’rgatish; ilmni so’rab bilib olish, ilm o’rganishda uyalmaslik, o’zi uyalsa, boshqa biron orqali so’rab bilib olish lozimligi; ilmga doir savol bergan odamga so’raganidan ko’ra, ko’proq javob qaytarish; ilm tinglovchiga tushunarli bo’lsin uchun, har bir gapni bir necha marta (uch bor) qaytarishning afzalligi; ilmni ishtiyok bilan o’rganishning afzalligi; ayollarga ham ilm o’rgatish lozimligi; eshitganni yaxshiroq bilib olish, mukammal tushunish uchun qayta so’rash joizligi; ilmni bilgan kishi bilmaganga, eshitganlar eshitmaganlarga etkazishi lozimligi; ilm berayotgan ulamoning so’zlariga jim turib, diqqat bilan quloq solishning ma’qulligi; odamlarga juda oz bilishlarini anglatishning zarurligi; ilmni tushunishni, ilm olishni istamagan kishi o’rniga ilmni tushunadigan qavmga o’rgatish joizligi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy (873-950) o’z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo’yicha birinchilardan bo’lib yirik asarlar yaratgan mutafakkirdir. Uning “Fozil odamlar shahri”, “Ideal jamoa haqida”, “Baxt-saodatga erishuv to’g’risida” kabi mashhur asarlarida ijtimoiy hayotning turli masalalari, ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari, inson kamoloti bosqichlari, uni yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo’llari, o’quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning didaktik va psixologik asoslari, inson shaxsini kamol toptirish yo’l-yo’riqlari, ilm- ma’rifatga erishuvning usullari haqidagi fikrlari ijtimoiy muammolarni echish masalalari bilan uyg’unlashganligini ko’ramiz. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo’lishlikni o’rganishdir. Agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo’lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig’i bo’ladilar, degan xulosaga keladi.

Forobiyning o’quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, ustoz faoliyati hamda shaxsiga qo’yiladigan talablar, o’qituvchi kasbiy tayyorgarligiga bo’lgan e’tibor, shuningdek, insonlar

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

jamoasidagi o’zaro hamjihatlik, yordam, inson kamoloti va uning jamiyat taraqqiyotidagi o’rni to’g’risidagi g’oyalari hozirgi o’quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda, bo’lg’usi o’qituvchilarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarining shakllanishida g’oyat muhim ahamiyatga egadir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o’zining pedagogik-psixologik qarashlarida didaktikaga doir dolzarb masalalarni o’rtaga tashlaydi. Uning pedagogi ijodida inson va uning baxt-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo’lgan. Shunga ko’ra tabiat, jamiyat hodisalariga, turmush voqealariga xolisona baho berish inson tabiatini anglatuvchi omil ekanligini ta’kidlab, kishilarni voqealarga mustaqil va ongli munosabatda bo’lishga undaydi. Har bir inson o’z qalbining farmoyishiga ko’ra ezgulikka intilishi, shuhrat qozonish uchun muruvvat ko’rsatmasligi kerakligini ta’kidlaydi. U har bir narsani aniq, sinchiklab o’rganish, bilish va, shundan so’nggina, bir xulosaga kelish kerakligi va, bu o’rinda, ayniqsa, tajribaga asoslanishini alohida uqtiradi, nodonlik, qalloblik erinchoqlik, ilmsizlik va sun’iy e’tiqodni tanqid qiladi. Beruniy o’quvchini hamma narsaga o’rgata olish mumkinligini, o’qitish va tarbiyalashda turmush va tabiat ko’rsatmalariga asoslanishni, bolaning shaxsiy va individual xususiyatlarini doimo nazardan chetda qoldirmaslikni uqtiradi. [13]

Beruniy ta’lim jarayonining mohiyatini chuqur tahlil qilib, o’qituvchining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligiga qator didaktik va psixologik talablar qo’yadi, hamda pedagogik faoliyatida quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadi:

- sezgi organlarining ma’lumotlariga ko’ra ... bilishni davom ettirish;
- fanni o’rganayotganda fikrlash, xotirlab esga olish zarur;
- o’rganilayotgan ilmlarni to’la bilib olish uchun, o’sha ilmni tashkil etib turgan elementlarni puxta o’rganib chiqish;
- bilimda oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga, yaqindan-uzoqqa, osondan-qiyinga, dalillardan-xulosalarga qarab borish;
- uzoq o’tmishga oid bilimlarni o’rganganda shu ilm, fan tarixini o’rganish;
- hodisalarni, fan asoslarini bir-birlariga taqqoslab, solishtirib, har tomonlama chog’ishtirib o’rganish. [25. 358]

Beruniyning bu kabi hayotiy xulosalari bugungi kunda ham o’z qimmatini pasaytirgan emas.

Ibn Sino (980-1037) “Tib qonunlari” asarida o’quv-tarbiya jarayoni yagona jarayon ekanligini ta’kidlab, bolani olti yoshdan boshlab muallimga topshirish xususida fikr yuritadi. Ibn Sinoning hayotiy kuzatishlari va g’oyalari nafaqat o’z davrida, balki hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yusuf Xos Hojibning shoh asari “Qutadg’u bilik” (“Saodatga yo’llovchi bilim”) turkiy xalqlarning qadimgi ta’lim va tarbiya usullari, ma’naviy kamolot, axloq va odobga doir noyob ma’lumotlarni saqlagan muhim manbadir. Mazkur asarni o’rganish orqali XI asrdagi ijtimoiy-madaniy hayot, yoshlar tarbiyasiga bo’lgan e’tibor, maktablardagi fan tarmoqlari, o’qituvchining kasbiy faoliyati va shaxsiy kamoloti, o’qitish tizimining o’ziga xos xususiyatlari haqida ko’plab qimmatli ma’lumotlarga ega bo’lamiz. Uning fikricha, insonning ulug’ligi aql-idroki, so’zlash qobiliyati, bilimi, odobi va uquv-hunarga egaligidadir. Bu xislatlar uning muhtamligini ham ta’minlaydi. Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, o’qituvchi o’z bilimi, til odobi, yurish-turishi, rostgo’yiligi, pokligi, kamtarligi, sevgi va vafosi, mehr-muruvvati, sabr-toqati kabi fazilatlar bilan yoshlarni har bir ishda aql-idrokli, o’zgalarga g’amxo’r va mehribon, har bir ishni o’z o’rni va o’z vaqtida ado etadigan qilib tarbiyalashlari lozim.

Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’ati-turk”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston va Bo’ston”, Axmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” nomli va boshqa ko’plab buyuk ajdodlarimiz asarlarida

ham o’quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning yo’llari, o’qituvchining ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi, faoliyati va shaxsiga qo’yiladigan asosiy talablar, o’qituvchining ilm, fan va jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rni to’g’risida qimmatli fikrlar o’z ifodasini topgan.

Pedagogning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi haqidagi ta’limotlarda o’qituvchi majburiyatlarining eng asosiylari sifatida quyidagilar ajratib ko’rsatilgan:

1. O’qituvchi bolalarni yoqtirishi va ularga o’zining farzandidek munosabatda bo’lishi kerak. Shuningdek, ularning zaif jihatlarini doimo tushunishi va ularni shu zaifligi uchun yanada ko’proq yoqtirishi lozim.

2. O’qituvchi o’zining ishi uchun haq ta’ma qilmasligi, in’om olmasligi yoki minnatdorchilik kutmasligi kerak. U o’quvchidan uning o’qishni xohlashi uchun minnatdor bo’lishi zarur.

3. O’qituvchi hech qachon o’quvchiga maslahat berishdan bosh tortmasligi kerak. Olg’a siljishni o’quvchi emas, o’qituvchi baholaydi.

4. O’qituvchi o’quvchini yomon yo’ldan qaytarish uchun unga to’g’ridan-to’g’ri emas, balki nimalargadir ishora qilib gapirishi lozim.

5. Ma’lum fanni o’rgatadigan o’qituvchi o’quvchilar oldida boshqa fanlar haqida nojo’ya gap aytmasligi kerak.

6. O’qituvchi nimani o’rgatsa, o’zi ham shunga amal qilishi shart. U birinchi galda o’qishning samarasini ifodalaydigan jonli timsoldir.

Alisher Navoiy yashagan paytda tarbiyaning maqsadi yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib voyaga etkazishdir. Hatto injiq, yalqov, yomon xulqli bolalarni ham tarbiya va o’qitish yo’li bilan yaxshi fazilat egasi qilib tarbiyalash mumkin. Navoiy o’qituvchining bir qancha ijobiy sifatlarini-qat’iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehribonligi, hatto, tashqi qiyofasi, saranjom-sarishtaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishlari bilan hammaga namuna bo’lishini, yoshlarga ularning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishni, shuningdek, tarbiya ishi juda ham mashaqqatli va murakkab ish ekanligini alohida e’tirof etadi.

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, o’qituvchining kasbiy tayyorgarligiga, o’qituvchi shaxsi va faoliyati uchun zarur bo’lgan sifat va fazilatlarga, o’quv-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishning ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik xususiyatlariga sharq mutafakkirlari va ma’rifatparvar ziyolilari alohida e’tibor bilan qaraganlar. Ayniqsa, o’quv-tarbiya jarayoni uchun javobgar, uning asosiy sub’ekti hisoblangan o’qituvchi shaxsi va faoliyatiga xos zaruriy sifat va fazilatlar shakllangan bo’lishi, ular o’zlariga tegishli burch hamda vazifalarni sadoqat bilan ado etishi, bolalarga mehribon, g’amxo’r, adolatli va kechirimli bo’lishi eng muhim qadriyat sifatida e’zozlangan. Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan o’qituvchi kasbiy tayyorgarligining milliy-ruhiy xislatlariga xos qimmatli ma’lumotlar hozirgi davrda xam bo’lg’usi o’qituvchilar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda, o’quv-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, o’qituvchi to’g’risida buyuk ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy ta’limotlari negizida ham har bir o’qituvchini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillariga jiddiy e’tibor qaratish taqozo etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисида Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь ЎРҚ-637 сон Қонуни.

2. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. 2016 йил 14 сентябрь.

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сон фармони. 2017 йил 7 февраль.

4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 154 б.